

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

DEDAXANOVA MUHAYYO MUTALLIYEVNA

**12-15 YOSHDAGI O‘QUVCHILAR NUTQINING
NEYROLINGVISTIK TAHLILI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Dedaxanova Muhayyo Mutalliyevna

12-15 yoshdagi o‘quvchilar nutqining neyrolingvistik tahlili 3

Дедаханова Мухайё Муталиевна

Нейролингвистический анализ речи учащихся 12-15 лет..... 27

Dedakhanova Mukhayyo Mutallievna

Neuro-linguistic analysis of the speech of students aged 12-15 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

DEDAXANOVA MUHAYYO MUTALLIYEVNA

**12-15 YOSHDAGI O‘QUVCHILAR NUTQINING
NEYROLINGVISTIK TAHLILI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil2798 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb – sahifasida (www.kspi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nabieva Dilora Abdulhamidovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sultonova Shoxista Muxammadjanovna
filologiya fanlari doktori, professor

Musayeva Yelena Kazimovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____. dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.Y.Sadikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d. (DSc), professor

I.O'Darvishov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

F.I.Karimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon tilshunosligida inson tili nihoyatda murakkab, ko‘p qirrali va hayratlanarli darajada noyob hodisa va turli qoliplarga ega ekanligi sababli uning o‘ziga xos qirralari mukammal o‘rganishga kirishilmoqda. Tilshunoslik tarixida til hodisalariga turli xil yondashishlar borki, inson nutqni o‘rganishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri pragmatika bo‘lib, uning o‘zak-negzida til birliklaridan foydalanish va so‘zlovchining kommunikativ niyatlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga qaratilgan neyrolingvistika asosiy o‘rin tutishi aniqlanmoqda. Antroposentrik paradigmalar asosida og‘zaki nutqiy muloqot neyrolingvistik xususiyatlari muammolariga yechim topish uchun uni unga bevosita aloqador bo‘lgan tilshunoslikdagi psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik sohalari bilan uzviy bog‘liqlikda, aloqadorlikda o‘rganish asosiy metodologik tamoyil sifatida belgilab berilmoqda.

Dunyo tilshunosligida nutqiy neyrolingvistik jihatlarning o‘rganilishida turlicha yondashuvlar mavjudki, globallashuv jarayonlarida nutqni tushunish, nutqni irod etish, xotirada ma’lumotni saqlash holat-vaziyatlarida va nutq rivojlanish xilma-xilligi hamda shaxsiy tajriba o‘rtasidagi bog‘liqlik borasida yangi ilmiy-nazariy asoslar maydonga kelmoqda. Neyrolingvistikaning til jarayonlari va miyaning neyrobiologik mexanizmlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan fanlararo alohida soha ekanligi o‘z isbotini topib ulgurmoqda. G‘arb va Sharq neyrolingvistikasida qabul qilingan nutqni o‘rganishga qaratilgan yondashuvlarda anchagina farq borligi sababli turli jamiyatnutqning asosiy kognitiv jarayonlariga qaratilgan psixolingvistik yondashuvlarda neyrolingvistik yondashuvlar ustunlik qilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida ham neyrolingvistika sohasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbek neyrolingvistikasi ham alohida mustaqil fan sifatida metodologik asoslari tavsifi, shuningdek, uning shakllanish tarixining muhim tavsifi yoritib berilmoqda, biroq mamlakatimiz tilshunosligida neyrolingvistika sohasi endilikda to‘la va mukammal rivojlanishning dastlabki bosqichida turibdi. O‘zbek tili nutqiy neyrolingvistik tahlillari hali batafsil amalga oshirilmagan, bu tadqiqotning dolzarbligini ko‘rsatadi. To‘g‘ri ta’kidlanganidek, «Hukumatning asosiy maqsadi yoshlarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash, ularni jismonan sog‘lom, ma’naviy va nutqiy barkamol insonlar etib voyaga yetkazishdir»¹. Tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalarni amalga oshirishda o‘zbek tilining fonetik-fonologik, leksik va semantik, grammatickuzilishlarni oldini olish o‘sib kelayotgan kichik avlodlar – o‘quvchilar nutqining neyrolingvistik jihatlarini mukammal o‘rganish orqali amalga oshishi mazkur tadqiqotimizning zaruratini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ Mirziyoyev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz». O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish marosimida Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqidan. 2016-yil 14-dekabr. <https://president.uz/oz/lists/view/111>

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son «2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlanterish milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda ma’qullangan va Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda tasdiqlangan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi PQ-214-son «Chet tillari bo‘yicha uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy – axloqiy va madaniy rivojlanterish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. 1923-yilda J.Piage², bolalar psixologiyasi va bolalarning intellektual rivojlanish davrini birinchilardan bo‘lib o‘rgandi va kognitiv rivojlanish nazariyasini yaratub berdi. 1954-yilda Braun va Erik Lenneberg³ atrof-muhit va o‘z harakatlarini idrok etish harakatlarni muvofiqlashtirish va rejalarashtirishda, shuningdek, harakat vazifalarini bajarishni to‘g‘rilash uchun zarur bo‘lgan sensorli tizimlardan fikr-mulohazalarni qabul qilishda, nutqni tuzatishda markaziy rol o‘ynashi aniqladi. 1907-yilda V.Shtern⁴ tug‘ma qobiliyatlar va tashqi omillar, ular o‘rtasidagi murakkab munosabatlarga e’tibor qaratadi. Bu munosabatlar shaxs va uning iste’dodini rivojlanterishda muhim rol o‘ynashini, 1957-yilda Noam Xomskiy⁵ kognitiv fanlarni o‘rganishda hal qiluvchi shaxsga aylandi. Bu fanlar inson xatti-harakatining asosida yotuvchi fikrlash jarayonlari va mexanizmlarini tushunishga qaratilgan edi. Bundan tashqari, 1885-yilda Dejerina-Lixtgeym, 1947-yilda N.A.Bernshteyn va S.Rouz⁶, J.Fild⁷, 1969-yilda A.A.Leontev⁸ M.M.Lapkin⁹, A.R.Luriya¹⁰lar tomonidan neyrolingvistik jarayonlar o‘rganildi. R.L.Levina¹¹ esa sohaga «Funksional tizim tamoyili»

² Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка – М: ACT, 2020 – 352 с.

³ Brown R. Reference: In Memorial Tribute to Eric Lenneberg // Cognition. 1976. V. 2. № 4. – P.125-153.

⁴ Штерн В. Дифференциальная психология и ее методические основы. Уч. пос. – М.: Наука, 1998. – 335 с.

⁵ Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. Вып. II. – М., 1962. – С. 412-527.

⁶ Роуз С. Устройство памяти. От молекул к сознанию. – М.: Мир, 1995.

⁷ Филд Дж. Психолингвистика. Ключевые концепты. Энциклопедия терминов (с английскими эквивалентами). – М.: Издательство ЛКИ, 2012.

⁸ Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность – М.: Просвещение, 1969 – 214 с. эл. версия. https://studylib.ru/doc/180483/leont._ev-a.a.-yazyk-rech.-rechevaya-deyatel.nost.

⁹ Лапкин М.М., Кирюшин В.А., Козеевская Н.А., Анохин П.К. Создатель теории функциональной системы (к 120-летию со дня рождения академика Петра Кузьмича Анохина) журнал Российской медико-биологический вестник имени академика Павлова И. – Т. 26. №1. – П., 2018.– С. 47-58.

¹⁰ Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М: Издательство Московского университета, 2009. – 252 с.

¹¹ Левина Р.Е. Нарушения речи и письма у детей избр. тр. / ред. сост.// Ахутина Т.В. Нейролингвистический анализ лексики, семантики, pragmatики. – М.: Языки славянской культуры, 2014. – 422 с.

tushunchasini kiritdi. Bu tushuncha organizmning ko‘plab mexanizmlarini yagona, yaxlit asab tizimiga birlashtirish g‘oyasini ifodalaydi. T.V.Axutina¹² neyrolingvist olimlarning tadqiqotlariga asoslanib, afaziya bilan og‘rigan bemorlarning sintaktik nutqi buzilish bosqichlarini ochib bergan. T.V.Chernigovskaya¹³ esa inson miyasi va uning nutq rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rgandi.

O‘zbek tilshunosligida I.A.Azimova, D.Ashurova va R.R.Bobokolonlarning¹⁴ ilmiy tadqiqotlari nutq buzilishlarini tuzatish muammosiga bag‘ishlangan. Ushbu sohadagi nazariy tadqiqotlar nutq faoliyati davomida miya faoliyatini o‘rganadigan neyrolingvistik tadqiqotlar natijalari bilan to‘ldirildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 561624 – EPP «IMEP: O‘zbekistonda ta’lim va oliy ta’lim sohasidagi jarayonlarni xalqarolashtirish va modernizatsiyalash» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: 12-15 yoshdagi nutq buzilishlari – disleksiya, alaliya, disgrafiya, dislaliya, taxilaliyaga uchragan o‘quvchilar nutqini neyrolingvistik tahlil qilish va ularni neyrolingvistik mashqlar yordamida tuzatish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mustaqil fan sifatida neyrolingvistikaning metodologik asoslarini tavsiflash, shuningdek, nutq buzilishlarini yoshga bog‘liq holda o‘rganishga neyrolingvistik yondashuvni asoslash;

12-15 yoshli o‘quvchilarda lingvistik ma’lumotlarni qabul qilish va aks ettirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, nutq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 12-15 yoshli o‘quvchilar nutqining neyrolingvistik jihatlarini tadqiq qilish, shuningdek, umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 5-6-7-sinflari uchun rus tili darsliklari tahlilini o‘tkazish;

12-15 yoshli o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutq buzilishlarini korreksiyalashning neyrolingvistik usullari va mashqlarini takomillashtirish;

neyrolingvistik mashqlar asosidagi korreksion dasturni sinovdan o‘tkazish va uning asosida takomillashtirilgan neyrolingvistik mashqlardan foydalanish natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ona tili (rus tili) ta’limida nutq o‘stirish bilan bog‘liq muammolari (disleksiya, disgrafiya, disgrafiya) bo‘lgan 12-15 yoshli o‘quvchilarning nutqi olingan.

¹² Ахутина Т.В. Нейролингвистический анализ лексики, семантики, прагматики. – М.: Языки славянской культуры, 2014. – 422 с.; Черниговская Т.В. Эволюция языковых и когнитивных функций: физиологический и нейролингвистические процессы: Дис. докт. биол. наук. – СПб., 1993. 54 с.

¹³ Черниговская Т.В. Эволюция языковых и когнитивных функций: физиологический и нейролингвистические процессы: Дис. докт. биол. наук. – СПб., 1993. 54 с.

¹⁴ Азимова И.А. Аграмматик афазияда айрим феъл замонларининг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – № 6 (1). – Б. 95-100; Ашуррова Д. Роль когнитивной лингвистике в Узбекистане // Хорижий филология. – Тошкент, 2016. – №3; Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматический человек. Научно-популярная монография. – LAMBERT Academic Publishing, 2023. – 230 с.

Tadqiqotning predmetini 12-15 yoshli o‘quvchilarda disleksiya, alaliya, disgrafiya, dislaliya va taxilialarni bartaraf etishga qaratilgan turli xil yondashuvlar, usullar va neyrolingvistik korreksion ishlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda kuzatish, taqqoslash, suhbat, ijtimoiy-pedagogik tajriba-sinov, ekspert baholash kabi usullardan foydalanildi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

12-15 yoshli o‘quvchilarning dislaliya, alaliya, disgrafiya, dixlaliya, taxalaliya kabi nutq rivojlanishidagi buzilishlar bilan bog‘liq nutq xatolarining tipologiyasi ochib berilgan va nutqiy buzilishlarning etiologiyasi va simptomatikasi hisobga olgan holda aniqlangan;

12-15 yoshli nutq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda nutq buzilishlarini korreksiya qilishda ularga xos bo‘lgan retsepsiya va lingvistik axborotlar refleksiyasining o‘ziga xos xususiyatlari yosh va gender omillari shartlangan holda hisobga olish asosida dalillangan;

12-15 yoshli o‘quvchilarda dislaliya, alaliya, disgrafiya, disleksiya, tahalaliyalarni korreksiyalashning neyrolingvistik usul va mashqlari yosh xususiyatlarini inobatga olishda o‘quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik asoslari takomillashtirilgan;

ona tili (rus tili) ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv elementlari bilan nomutaxassislik maktablarida ta’lim olayotgan bolalarda nutq rivojlanishidagi buzilishlarni korreksiyalashga neyrolingvistik yondashuvni maqsadga muvofiq qo‘llash asoslari isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

12-15 yoshli o‘quvchilar nutqining jins-yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda neyrolingvistik jihatlari tizimli tavsiflangan;

Rus tilini o‘rganishda neyrolingvistik mashqlardan foydalangan holda nutq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan «Rus tili bo‘yicha o‘rta sinf o‘quvchilarining nutqini korreksiyalash bilan diagnostik ishlar uchun mashqlar to‘plami» ishlab chiqildi. To‘plamda 6-sinf o‘quvchilar uchun «Rus tili» maktab kursining barcha bo‘limlari bo‘yicha turli til darajasidagi birliklardan me’yoriy foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga, shuningdek, dislaliya, alaliya, disgrafiya, disleksiya, tahalaliyalarni tuzatishga qaratilgan mashg‘ulot mashqlari keltirilgan. Har bir mavzu o‘qituvchilar uchun turli xil mashqlarni qo‘llash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tajriba-sinov ishlari natijalarining reprezentativligi, matematik statistika metodlari vositasida tasdiqlanganligi, takliflarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o‘smir talabalarning nutq rivojlanishidagi anormalliklarning tashxisini aniqlashtirishdadir. Semantik xatolarning aniqlangan turlari nutq rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarda nutq buzilishlarini yanada maqsadli va samarali tuzatishga imkon beradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun nutq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning rivojlanishiga neyrolingvistik

yondashuv, patologik hodisalarining nuanslariga kirib borish an'analari va o'smirlar bilan ishlashda yuqori darajada tabaqa lashtirilgan analitik usullar eng mos deb topildi.

Olingen tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati 12-15 yoshli o'quvchilarda nutq buzilishlarini tuzatishga ishda ishlab chiqilgan neyrolingvistik yondashuv, shuningdek uni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi. alohida ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlaydigan rus tili o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanmalar, shuningdek, defektologiya va neyrolingvistika bo'yicha universitet kurslarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda ishlab chiqilgan 12-15 yoshli o'quvchilarda nutq buzilishlarini korreksiyalashga neyrolingvistik yondashuv hamda uni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan rus tili o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda, shuningdek, defektologiya va neyrolingvistika bo'yicha oliv o'quv yurtlarining kurslarini o'qishda qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 12-15 yoshdagi nutq buzilishlariga uchragan o'quvchilar nutqini neyrolingvistik tahlil qilish va ularni neyrolingvistik mashqlar yordamida tuzatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha olingen natijalar asosida:

12-15 yoshli o'quvchilarning dislaliya, alaliya, disgrafiya, dixlaliya, taxalaliya kabi nutq rivojlanishidagi buzilishlar bilan bog'liq nutq xatolarining tipologiyasi ochib berilgan va nutqiy buzilishlarning etiologiyasi va simptomatikasi hisobga olgan holda aniqlangan o'rinnidan O'zbekiston Respublikasi maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi huzuridagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida amalga oshirilgan NoZ-2016-0908165532 raqamli "Qoraqalpoq tili va adabiyotini yangi alibo va imlo qoidalariga muvoiq rivojlantirish metodikasi" nomli loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2024- yil 24-iyundagi 250-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning uslubiy bazasi nutq rivojlanishining eng keng tarqalgan buzilishlarini tizimli tavsiflash bilan boyitilgan;

ona tili (rus tili) ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv elementlari bilan nomutaxassislik maktablarida ta'lim olayotgan bolalarda nutq rivojlanishidagi buzilishlarni korreksiyalashga neyrolingvistik yondashuvni maqsadga muvofiq qo'llash asoslari isbotlangan o'rinnidan O'zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi huzuridagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida amalga oshirilgan Z-2016-0908165532-raqamlii «Ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi» asosidagi «Qoraqalpoq tilining yangi alibosi va imlo qoidalariga muvoiqlashtirish» nomli fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2024-yil 24-iyundagi 250-sonli ma'lumotnomasi). Natijada darslik mazmuni ona tilini o'qitishga neyrolingvistik yondashuv asoslari haqidagi muhim nazariy ma'lumotlar bilan to'ldirilgan;

12-15 yoshli nutq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda nutq buzilishlarini korreksiya qilishda ularga xos bo‘lgan retsepsiya va lingvistik axborotlar refleksiyasining o‘ziga xos xususiyatlari yosh va gender omillari shartlangan holda hisobga olish asosida dalillangan xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan «Millat va ma’naviyat», «Ta’lim va taraqqiyot» va «Bolalar va biz» radio dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 16-oktyabrdagi O‘z/RV-23-44-son ma’lumotnomasi). Natijada, radioeshittirishlar mazmuni nutq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda nutq buzilishlarini korreksiyalash muammosiga oid yangi qarashlar bilan boyitilgan;

12-15 yoshli o‘quvchilarda dislaliya, alaliya, disgrafiya, disleksiya, tahalaliyalarni korreksiyalashning neyrolingvistik usul va mashqlari yosh xususiyatlarini inobatga olishda o‘quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik asoslari takomillashtirilgan o‘rinlardan Respublika Ma’naviyat va ma’riat markazi huzuridagi Ijtimoiy fanlar instituti tomonidan 2023 yilga mo‘ljallangan tadbirlar dasturi asosidagi «Uzluksiz ma’naviyat va ma’rifat konsepsiysi» mavzusidagi tadbirda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’riat markazi huzuridagi Ijtimoiy – ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 4-oktyabrdagi 390-sonli ma’lumotnomasi). Natijada yoshlarda zarur kasbiy kompetensiyalar shakllanishiga oid ta’limiy-tarbiyaviy konsepsiylar takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, 1 ta uslubiy qo‘llanma jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, xorijiy jurnallarda 8 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 177 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ishning obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot mavzusining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Neyrolingvistikada o‘smir bolalar nutqini tadqiq etishning nazariy asoslari» deb nomlangan birinchi bobu uch paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda mustaqil fan sifatida neyrolingvistikaning metodologik asosi tavsifi, shuningdek, uning shakllanish tarixining eng muhim epizodlari tavsifi berilgan.

Ma'lumotnomalarda neyrolingvistika va uning predmeti quyidagicha ta'riflanadi: «Nevrologiya va lingvistikaning kesishmasida paydo bo'lgan va til tizimini lisoniy xulq – atvorming miya substrati bilan bog'liq holda o'rganadigan ilmiy fan. Neyrolingvistik tadqiqotlarning predmeti, ko'pincha, afatsiyalar bo'lib, ularning ko'rinishlari xilma – xil bo'lib, fonologik, grammatik, leksik va semantik buzilishlarni o'z ichiga oladi. Neyrolingvistika uchun til xulq – atvori buzilishlarining nofaz shakllari: nutq agnoziyalari va apraksiyalar, dizartriyalar, aleksialar va agraifiyalar ham qiziqish uyg'otadi»¹⁵ Bu shuni anglatadiki, ushbu fan predmetida faqat jiddiy tibbiy aralashuvlarni talab qilmaydigan nutq buzilishlari mavjud. Neyrolingvistika – bu boy tarixga ega bo'lgan ilmiy tadqiqot sohasi bo'lib, u har doim tadqiqotchilar e'tiborini tortgan.

Nutq buzilishlarining sabablarini tizimlashtirish va tushuntirishga, shuningdek, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashga birinchi urinishlar antik davr shifokorlari ishlarida paydo bo'lgan. Nutq buzilishlari haqidagi dastlabki ma'lumotlardan biri qadimgi yunon adabiyotida, xususan, Gerodot (miloddan avvalgi V asr)da¹⁶ uchraydi. Qadimgi yunon tabiatshunosi Gippokrat (eramizdan avvalgi 499 – 377 yillar) nutq buzilishlarining birinchi to'liq va tizimli tavsifini bergen. Inson faoliyatida bosh miyaning yetakchi rolini e'tirof etib, u ovoz va nutqning hosil bo'lish mexanizmini o'z tushunchasini bayon qilib, havo oqimi, til va artikulyatsiyaning rolini ta'kidladi. Qadimgi Rim shifokori Galen¹⁷ nutq kasalliklarining ilmiy terminologiyasiga asos solib, ularni ovoz buzilishi (halqum bilan bog'liq muammolar tufayli) va nutq buzilishi (til, lablar, tanglay va boshqalarning shikastlanishi tufayli) kabi turlarga ajratgan. Shuningdek, u ba'zi nutq buzilishlarida markaziy asab tizimining rolini ta'kidladi. Ibn Sino ham nutqqa ta'sir qiluvchi markaziy nerv sistemasining zararlanishi mumkinligini e'tirof etgan. Davolash uchun u turli xil usullarni taklif qildi, shu jumladan qon chiqarish, til mashqlari, novshadil, qalampir, xantal va so'lak ajralishini rag'batlantirish uchun bog'lovchi vositalardan foydalanish¹⁸.

A.R.Luriyaning ta'kidlashicha¹⁹, neyrolingvistikaning shakllanishida klassik bosqich 1861-yildan boshlangan bo'lib, frantsuz anatomi P.Brok «afemiya» atamasini kiritgan. 1864-yilda fransuz terapevti A.Trusso «afaziya» atamasini muomalaga kiritdi.

P.Broka nutqida nuqsoni bo'lgan bemorlarni o'rganib, miya peshona qismlarining shikastlanishi va a'zolarni ajratish qobiliyatining yo'qolishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi. Bu zona («Brok zonasi») o'ng yarimsharda, chap yarimsharda joylashgan. Bu zonaning zararlanishi odamning tovushlarni talaffuz qilish qobiliyatini saqlab qolgan holda ularni so'zlarga bog'lay olmasligiga olib keladi.

¹⁵ Нейролингвистика // ЛЭС / Под ред. Ярцевой В. Н. – М.: СЭ, 1990. – С. 327.

¹⁶ Геродот История в девяти книгах / Пер. и прим. Г.А. Стратановского. – Л.: 1972. – 600 с.

¹⁷ Грибанов Э. Д. Носил ли Гален имя Клавдий? // Из истории медицины / Под ред. Канепа В.В., т. 10. – Рига, 1975. – С. 130.

¹⁸ Хамраев М. Авиценна (Ибн Сина) о состояниях человеческого тела, здоровье и болезни, о классификации и номенклатуре болезней, о семиотике и диагностике заболеваний //Medical science: Section 6. – Тайвань, 2018. – С. 65-71.

¹⁹ Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Академия, 2003. – С. 68.

Afaziya nevrologiya, psixologiya va fiziologiyaning eng qadimgi muammolaridan biri bo'lib, keyingi davrlarda neyrolingvistik tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Afaziya – bu bosh miya shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nutq buzilishidir. U to'liq yoki qisman bo'lishi mumkin va insult, miya yallig'lanishi yoki bosh jarohati kabi turli sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Afaziya nutqning barcha jihatlariga, jumladan, gapisht, nutqni tushunish, o'qish va yozish qobiliyatiga ta'sir qiladi. U xotira va diqqat kabi boshqa aqliy funksiyalarga ham ta'sir qilishi mumkin.

Neyrolingvistikidan shakllanishida I.P.Pavlov, N.A.Bernshteyn va P.K.Anoxinning fiziologik va psixik funksiyalarning tizimli tashkil etilishi haqidagi g'oyalarini, shuningdek, L.S.Vigotskiy va A.N.Leontyevning qarashlarini rivojlantirgan sovet psixolog va nevrolog shifokori A.R.Luriya asosiy rol o'ynadi. Jumladan, A.R.Luriya yuqori po'stloq funksiyalarining tizimli tuzilishi va dinamik joylashuvi tamoyilini ta'riflab berdi va miya shikastlanish joyi va afaziyaning turli shakllarini tashxislashga imkon beradigan aqliy faoliyat buzilishlarini o'rganish usullarini ishlab chiqdi²⁰.

Zamonaviy neyrolingvistika nuqtayi nazaridan, nutq nafaqat bilish vositasi, balki aqliy faoliyat va xulq-atvorning regulyatori hamdir. U insonga sezgi a'zolariga etib bormaydigan mavhum tushunchalar va qonunlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish imkonini beradi.

Bobning ikkinchi paragrafi nutq buzilishlarini yoshga bog'liq holda o'rganishga neyrolingvistik yondashuv tavsifiga bag'ishlangan. Nutqning rivojlanishi go'daklik davridan boshlanib, maktabgacha, maktab va o'smirlik davrida bosqichma – bosqich davom etadi. Nutq buzilishining ehtimoliy sabablari quyidagilardan iborat:

1. Tug'ruqdagi patologiya (homila gipoksiyasi, chala tug'ilish, taqiqlangan dorilarni iste'mol qilish, zararli odatlar, onaning stresslari; tug'ruq travmalari).
2. Genetika (kayfiyat, ota-onalarda talaffuz muammolari; tug'ma anomaliyalar: tilning kalta yuganchasi, noto'g'ri tishlash, tanglay deformatsiyasi).
3. Orttirilgan kasalliklar (meningit, ensefalit; og'ir otitlar; bosh jarohatlari (artikulyatsion apparatning o'zgarishi).
4. Asab tizimi nuqsonlari (bachardon ichi buzilishlari, infeksiya va onaning travmalari, alkogol, giyohvand moddalar, nikotin iste'moli, stress).
5. Ijtimoiy omillar (notinch oilalar, muloqot etishmasligi, pedagogik qarovsizlik).

O'smirlik davrida nutq muammolari ayniqsa sezilarli bo'lib qoladi, buning natijasida bolalar o'zlariga yopishib oladilar va o'qish bilan bog'liq qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar.

Nutqiy buzilishlar – bu nutq tizimining rivojlanishi va faoliyatidagi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan og'ishlardir. Og'zaki nutqning buzilishlari quyidagilardan iborat: 1) dislaliya – tovush talaffuzining buzilishi bo'lib, bunda bolaning eshitish qobiliyati va intellekti saqlanib qoladi; 2) rinolaliya (burun orqali gapisht) – nutq analizatorining periferik qismidagi anatomik nuqson tufayli tovush talaffuzi va ovoz tembrining buzilishi; 3) dizartriya – nutq

²⁰ Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1975; Лурия А.Р. Высшие психические функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. – М., 1969.

funksiyasini ta'minlovchi mushaklarning etarli darajada innervatsiyasi yo'qligi tufayli tovush talaffuzi va nutqning prosodik tomoni (intonatsiya, melodika, ritm, ovoz balandligi) buzilishi; 4) disfoniya–tovush psychalarining yallig'lanishi natijasida ko'pincha yuzaga keladigan ovoz buzilishi (laringitlar); 5) duduqlanish – nutq apparati muskullarining tortishishi natijasida nutq tempi va ritmining buzilishi; 6) alaliya – 3 yoshgacha bo'lgan davrda miyaning organik shikastlanishi natijasida nutqning rivojlanmaganligi yoki rivojlanmaganligi; 7) afaziya – 3 yoshdan keyin bosh miyaning organik shikastlanishi natijasida nutqning yo'qligi yoki buzilishi; 8) taxilaliya – nutqning grammatik, leksik va fonetik jihatlari saqlangan holda bo'g' inlarning takrorlanishi va o'tkazib yuborilishi bilan nutqning patologik tezlashgan sur'ati; 9) bradilaliya – bosh miya shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan patologik sekin nutq tempi. Yozma nutqning buzilishi bir necha turli shakllarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi: 1) disgrafiya – yozuvda yangraydigan nutqning noto'g'ri aks etishi yuz beradigan buzilish, buning sabablari tovushlarni idrok etish bilan bog'liq muammolar, harakatlarni muvofiqlashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar, fonematik eshitishning etarli darajada rivojlanmaganligi bo'lishi mumkin; 2) displeksiya – bolalar o'qish jarayonida bir harfni ikkinchisi bilan almashtirishi, harflarni joyini o'zgartirishi, so'zlarni aniqlashda muammolarga duch kelishi mumkin bo'lgan buzilish; 3) dizorfografiya – bolaning imlo ko'nikmalarini avtomatlashtirishga qodir emasligi.

Shunday qilib, bolalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nutq buzilishlarining spektri juda keng va ularning aksariyati turli xil tug'ma yoki orttirilgan patologiyalar bilan bog'liq. Biroq ularning hammasi u yoki bu darajada miya faoliyatining rivojlanish xarakteri va psixofizik mexanizmlardagi og'ishlar bilan bog'liq. Ushbu tadqiqot doirasida biz faqat mutaxassis-filologning vakolatiga kiradigan nutq buzilishlarining turlari, ya'ni dislaliya, alaliya, disgrafiya, dixlaliya, tahalaliyalarga e'tiborimizni qaratamiz.

O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bir tomondan, so'z boyligining kengayishi sodir bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'smir ona tilini kodlash qobiliyatiga ega bo'lgan ko'plab ma'nolarni faol o'zlashtiradi. Bu jarayonlarga ta'sir etuvchi muhim omillar 12-15 yoshda jinsiy etilish va boshqa fiziologik o'zgarishlardir. O'g'il bolalar va qizlar o'rtasida gender farq ham mavjud. Xususan, o'g'il bolalarda androgenlar ta'sirida hiqildoq o'sib, ovoz boylamlari uzayadi va yo'g'onlashadi, bu esa ovozni pasayishiga olib keladi. Yigitlar va qizlar psixologik va xulq – atvor jihatidan bir-biridan farq qiladi. Xususan, bu oila, maktab va jamiyatda bolalarga singdirilgan axloqiy-psixologik sifatlarni shakllantiruvchi nutqning gender simvolizmi bilan bog'liq.

O'smirlar o'z nutqidagi buzilishlarni nihoyatda og'riqli tarzda qabul qiladilar. Shu bilan birga, yosh xususiyatlariga ko'ra, o'smirlar o'zlariga yopishib olishga va logopedlar yordamidan voz kechishga moil bo'ladilar. Bu esa 12-15 yoshli bolalarda nutq buzilishlarini korreksiyalash muammosini nihoyatda murakkablashtiradi, ko'p jihatdan uni nafaqat neyrolingvistika, logopediya va defektologiya, balki pedagogikaning ham masalasiga aylantiradi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida 12-15 yoshli o'quvchilarda lingvistik axborot retsepsiyasi va refleksiyasining o'ziga xos xususiyatlari

tavsiflangan. Lisoniy shaxs ko‘p qirrali shaxs tushunchasining shunchaki bir jihatni emas, balki uning barcha tarkibiy qismlarini: ruhiy, ijtimoiy, axloqiy va boshqalarni o‘z ichiga olgan to‘laqonli modeldir. O‘smirlilik davrining 10-11 yoshda boshlanadigan birinchi bosqichida o‘smirlar ongли bo‘lib qoladilar va o‘z harakatlari haqida refleksiya qila boshlaydilar. Ikkinchi bosqichda, 12-13 yoshda ular o‘z shaxsini va boshqa odamlar, ayniqsa, tengdoshlari bilan munosabatlarini tahlil qila boshlaydilar. Uchinchi bosqichda, 14-15 yoshda o‘smirlarning o‘ziga nisbatan tanqidiyiligi sezilarli bo‘ladi.

Maktab yoshida refleksiyanı rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Bolalikdan o‘spirinlikka o‘tish o‘smirning psixofiziologik xususiyatlariiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan jinsiy yetilish jarayonida ong, faoliyat, o‘zaro munosabatlar va organizmning shakllanishi sohasidagi sezilarli o‘zgarishlar bilan birga keladi. O‘smir o‘zini, ichki holatini adekvat baholay olishi, o‘z harakatlarini boshqara olishi va muloqotni rivojlantirishi uchun u refleksiyanı rivojlantirishi zarur. Falsafada refleksiya individning o‘zi haqida chuqur mulohaza yuritishi, o‘z harakatlari, fikrlari, his-tuyg‘ularini o‘z-o‘zini tahlil qilishi, ongi o‘ziga qaratishi, o‘z ichki dunyosi haqida mulohaza yuritishi sifatida ta’riflanadi²¹. Refleksiya – bu insonning o‘z holatiga yoki bilimlariga bo‘lgan munosabatidir²². Shu bilan birga, har qanday refleksiya ham o‘z-o‘zini anglash emas: «O‘z-o‘zini anglash – bu boshqa subyektlardan va umuman dunyodan ajralib turadigan subyektning o‘z-o‘zini anglashidir»²³.

Refleksiya asosida teskari aloqa printsipi yotadi, bu esa organizmning atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga javob qaytarishiga imkon beradi. Boshqacha aytganda, refleksning asosida retsepsiya yotadi. Retsepsiya, fiziologiya nuqtayi nazaridan, organizm tomonidan turli xil qo‘zg‘atuvchilarni (mexanik, termik, elektromagnit, kimyoviy va h.k.) idrok etish va nerv signallariga aylantirish jarayonidir²⁴.

Nutq retsepsiysi murakkab jarayon bo‘lib, u nafaqat tildagi tovushlar yoki vizual obrazlarni qabul qilishni, balki ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatishni, shuningdek, ularning ma’nosini haqida tasavvurni shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar ko‘pincha nutq rivojlanishi uchun asos bo‘lgan fonematik idrok muammolari bilan to‘qnash keladilar. Fonema yoki tovush nutqning qurilish bloki bo‘lib, uni to‘g‘ri idrok etish dastlabki so‘z va iboralarni o‘zlashtirish uchun zarurdir. Fonematik idrok etishida muammosi bo‘lgan bolalarda tovushlarning tuslarini (fonatsiyalarni) farqlashda qiyinchiliklar kuzatiladi, bu esa murakkab tovushlarni tarkibiy qismlarga ajrata olmaslikka olib keladi. Bu birlamchi buzilish ko‘pincha ikkilamchi nuqsonlarga, xususan, tovush talaffuzining buzilishiga olib keladi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqni audial idrok etish bilan bir qatorda, normal rivojlanayotgan bolalarga nisbatan

²¹ Легин В.Б. Формирование рефлексивных умений младших школьников в учебной деятельности // Наука века: вопросы, гипотезы, ответы: электрон. журн. 2015. Режим доступа URL: <http://elibrary.ru/item.asp?id=23863802> (дата обращения: 17.02.2018).

²² Штерн В. Умственная одаренность: Психологические методы испытания умственной одаренности в их применении к детям школьного возраста / Пер. с нем. – СПб.: Союз, 1997. – С. 181.

²³ Бизаева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия: Уч. пособие. – Псков: ПГПИ им. Кирова С.М., 2004. С. 7.

²⁴ Бернштейн Н.А. О построении движений. – М.: RUGRAM, 2022. – 254 с.

ko‘rish sezgisini rivojlantirishda ham orqada qolish kuzatiladi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda predmetning yaxlit tasvirini idrok etish yaxshi rivojlanmagan²⁵. Xususan, bolalar va o‘smirlar harfli belgilar va fonemalarni farqlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ularni o‘rgatishda esa faqat ayrim tovushlar ularning yozma belgisi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda eslab qolinadi.

Neyrolingvistik yondashuv bolalarda oliy psixik funksiyalarning rivojlanishini o‘rganish uchun samarali vositani taklif qiladi. U geteroxron²⁶ etilishning o‘ziga xos ko‘rinishlarini aniqlash, kognitiv buzilishlarning paydo bo‘lish mexanizmlarini aniqlash va samarali korreksiya usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Nutq o‘spirin shaxsi va intellekti rivojlanishining muhim indikatori hisoblanadi. O‘smirlik davrida tafakkur va nutqning bir-biriga chuqur kirib borishi yuz beradi, bu esa shaxsning shakllanishida assosiy rol o‘ynaydi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bir tomonidan, nutq buzilishlari kognitiv buzilishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Boshqa tomonidan, nutq buzilishlarining o‘zi kognitiv buzilishlarning istalmagan holda paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Dissertatsiyaning «**Nutq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 12-15 yoshli o‘quvchilar nutqini korreksiyalashning neyrolingvistik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobu uchta paragrafdan iborat. Birinchi paragraf nutq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 12-15 yoshli o‘quvchilar nutqini korreksiyalashning neyrolingvistik usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Neyropsixologiya asoschisi A.R.Luriya²⁷ bola nutqining rivojlanishiga miya rivojlanishining yosh xususiyatlari ta’sir qiladi degan xulosaga keladi. Uning ta’kidlashicha, bola nutqining to‘liq rivojlanishi uchun nafaqat nutq apparatining rivojlanishi, balki bolaning asab-ruhiy faoliyatining uyushganligi va mantiqiy fikrlashining rivojlanishi ham zarur. N.Xomskiy²⁸ bola o‘z rivojlanishida nutq zanjiri qoidalaring faqat ayrim variantlarini o‘zlashtiradi va bolalarda «tilning chuqur grammatik tuzilmalari» rivojlanadi, bu fikrning kengaytirilgan nutqqa o‘tishi va aksincha o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in hisoblanadi, degan fikrga keladi. Tilning chuqur grammatik tuzilishi tashqi grammatik tuzilishdan farq qiladi. Shu tufayli bola o‘z rivojlanishining ma’lum bir bosqichida muloqot tizimida tashqi nutqqa ega bo‘ladi, lekin hali o‘z nutqini ichki tahlil qilishga tayyor emas.

V. Shtern²⁹ bolalar nutqini «bolaning o‘zida ta’sir qiluvchi qobiliyatlar va unga taqlid qilish uchun tashqaridan taklif qilinadigan qo‘zg‘atuvchilar mahsuloti» deb hisoblagan. Bolalar va o‘smirlar nutqining shakllanish jarayoni muhitning ichki moyilliklari va talablarining o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq. V.Shtern bolalar psixologiyasining barcha sohalari – kognitiv jarayonlarning rivojlanishidan tortib,

²⁵ Мастьюкова Е.М. О нарушениях гностической функции у учащихся с тяжелыми расстройствами речи // Дефектология. – 2003. – №1.

²⁶ Гетерохронность – это асинхронность, несовпадение во времени фаз развития отдельных органов и функций организма.

